O'ZBEK VA INGLIZ FOLKLORIDA OLQISH TUSHUNCHASINING TERMINOLOGIK CHEGARALARI VA QIYOSIY-TIPOLOGIK MEZONLARI

Muxriddin Yunusov

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'zbek folkloridagi olqish tushunchasining terminologik, semantik va janriy chegaralari ingliz folkloridagi blessing, good wish, well-wishing, benediction va praise birliklari bilan qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganiladi. Olqishni duo, fotiha, maqtov, salomlashuv, nasihat, qarg'ish va afsundan farqlash mezonlari tahlil qilinadi. Ingliz va irland ertaklaridagi olqish epizodlari asosida ezgu tilaklarning funksional xususiyatlari va badiiy vazifalari yoritiladi. Emic va etic yondashuvlar hamda illokutiv kuch tushunchasi asosida o'zbek va ingliz tillaridagi xalq ertaklarida olqish birliklarini aniqlashning umumiy metodologik tamoyillari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: olqish, blessing, good wish, benediction, praise, xalq ertagi, qiyosiy tipologiya, emic, etic, illokutiv kuch, janriy chegara.

Kirish

Olqish xalq og'zaki ijodining qadimiy verbal janrlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi so'zning inson taqdiri va voqelikka ta'sir ko'rsata olishiga bo'lgan tasavvurlar bilan bog'liq. Arxaik tafakkurda yaxshi so'z farovonlik, sog'lik va himoya keltirishi, yomon so'z esa zarar yetkazishi mumkin deb qaralgan. Mazkur tasavvurlar zamirida olqish, duo, fotiha, qarg'ish va afsun kabi o'zaro yaqin, ammo vazifasi turlicha nutqiy hodisalar shakllangan.

O'zbek va ingliz folklorida ezgu tilak ifodalovchi birliklar mavjud bo'lsa-da, ularning nomlanishi, mazmuni va qo'llanish sharoitlari har doim bir xil emas. O'zbek tilidagi «olqish» tushunchasi ingliz tilidagi blessing, good wish, well-wishing va benediction kabi birliklar bilan muayyan semantik umumiylikka ega. Biroq ularni to'liq ekvivalent sifatida talqin qilish ayrim terminologik muammolarni yuzaga keltiradi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da olqish «yaxshilik tilab aytilgan so'zlar, maqtov, duo» sifatida izohlanadi [1]. Ushbu ta'rif ezgu tilak, ijobiy baholash va diniy murojaat mazmunlarini birlashtiradi. Ingliz tilidagi blessing esa kontekstga qarab diniy duo, ezgu tilak yoki ilohiy marhamat ma'nolarini ifodalashi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz folkloridagi olqish tushunchalarining terminologik chegaralarini qiyosiy-tipologik jihatdan aniqlashtirish hamda xalq ertaklaridagi olqish birliklarini ajratish uchun umumiy funksional mezonlarni ishlab chiqishdan iborat.

Olqish va blessing tushunchalarining qiyosiy talqini

O'zbek xalq og'zaki ijodida olqish ezgu niyat, yaxshilik tilash va ayrim hollarda diniy iltijo bilan bog'liq nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Olqishning duo va fotiha bilan munosabati ayniqsa murakkabdir. Chunki kundalik nutq va marosimiy amaliyotda ezgu tilaklarning ayrimlari «duo» deb nomlanadi. Biroq ularning barchasi bir xil janriy xususiyatga ega emas.

Ingliz folklorida ham shunga yaqin terminologik holat kuzatiladi. Blessing diniy yoki tantanavor ezgu tilakni, benediction diniy marosimiy duoni, good wish va well-wishing esa umumiy ezgu niyatni ifodalashi mumkin. Praise mavjud ijobiy sifatni baholashga qaratilgani sababli olqish bilan to'liq tenglashtirilmaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mazkur terminlarning semantik ko‘lami qisman kesishadi, ammo ular bir-birini barcha kontekstlarda almashtira olmaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi «Xudo asrasin» va ingliz tilidagi God bless you konstruksiyalari diniy murojaatga asoslangan ezgu tilak modellaridir. Biroq ularning semantik yo‘nalishi aynan bir xil emas: birinchisida himoya semasi aniqroq, ikkinchisida esa umumiy ilohiy marhamat ma’nosi ustun bo‘lishi mumkin.

Shu sababli qiyosiy tadqiqotda lug‘aviy ekvivalentlik bilan funksional ekvivalentlikni farqlash zarur. Olqishning boshqa tildagi muqobilini aniqlashda uning nomi emas, balki adresati, nutqiy maqsadi va badiiy kontekstdagi vazifasi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Olqish va maqtovning terminologik chegaralari

Olqish bilan maqtov o‘rtasidagi asosiy farq nutqiy maqsad va vaqt yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Masalan, «Sen mard yigitsan» gapi adresatning mavjud sifatini baholaydi. «Doim mard va g‘olib bo‘lgin» esa kelajakdagi ezgu holatni tilaydi.

Ingliz tilida ham You are a brave man mavjud sifatni baholovchi gap bo‘lsa, May you always be brave and victorious kelajakka yo‘naltirilgan ezgu tilakni ifodalaydi. Demak, o‘zbek tilidagi maqtov va ingliz tilidagi praise olqish bilan semantik jihatdan yaqin bo‘lishi mumkin, biroq ularning asosiy nutqiy vazifasi farqlanadi.

Badiiy matnda bu farq ayniqsa muhimdir. Chunki qahramonning ijobiy sifatini ta’riflash bilan unga ezgu natija tilash bir xil poetik vazifani bajarmaydi. Shuning uchun xalq ertaklaridagi olqish birliklarini aniqlashda ijobiy bahoning mavjudligi emas, balki ezgu natijani tilash mazmuni asosiy mezon sifatida olinishi zarur.

Olqish, salomlashuv va nasihat munosabati

O‘zbek tilidagi «Assalomu alaykum» va ingliz tilidagi ayrim tarixiy salomlashuv formulalari dastlab ezgu ma’nolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq zamonaviy nutqiy amaliyotda bunday birliklar ko‘pincha muloqotni boshlash vazifasini bajaradi. Shu sababli har qanday salomlashuv formulasini avtomatik ravishda olqish sifatida tasniflash to‘g‘ri emas.

Nasihat ham olqishdan farqlanadi. Masalan, «Yo‘lda ehtiyot bo‘l» va Be careful on your journey konstruksiyalari adresatning xatti-harakatini boshqarishga qaratilgan. «Yo‘ling bexatar bo‘lsin» va May your journey be safe esa adresat uchun ijobiy natijani tilaydi.

Mazkur farq ikki tilda ham nutqiy maqsadning muhimligini ko‘rsatadi. Badiiy matnni qiyoslashda bu mezon olqishning oddiy maslahat, buyruq yoki nasihat bilan chalkashib ketishining oldini oladi.

Emic va etic yondashuvlarning qiyosiy ahamiyati

Folklor janrlarini qiyosiy o‘rganishda emic va etic yondashuvlar muhim metodologik ahamiyatga ega. Emic yondashuv xalqning o‘z janriy nomlari, an’anaviy tasavvurlari va ijro vaziyatini hisobga oladi. Etic yondashuv esa turli madaniyatlarda uchraydigan hodisalarni umumiy ilmiy mezonlar asosida qiyoslash imkonini beradi.

D. Vaitkevičienėning litva folklori bilan bog‘liq tadqiqotida ushbu yondashuvlarning metodologik ahamiyati ko‘rib chiqiladi [2].

O‘zbek folkloridagi «olqish», «duo», «fotiha», «tilak» kabi birliklarni faqat xalq orasidagi nomlanishiga ko‘ra ajratish ularning umumiy funksional xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Xuddi shuningdek, ingliz folkloridagi blessing, benediction va good wish tushunchalarini yagona termin ostida birlashtirish ularning madaniy va janriy farqlarini yo‘qotishi mumkin.

Shuning uchun qiyosiy tadqiqotda ikki darajali tasnifdan foydalanish maqsadga muvofiq: birinchi darajada birlikning milliy nomlanishi, ikkinchi darajada esa uning funksional va poetik xususiyati qayd

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

etiladi. Bunday yondashuv milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda tipologik umumiyliklarni aniqlash imkonini beradi.

Olqish va qarg'ish oppozitsiyasining badiiy talqini

Olqish tushunchasining terminologik chegaralarini aniqlashda uning qarg'ish bilan munosabati alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi blessing va curse birliklari semantik jihatdan qarama-qarshi bo'lib, birinchisi ezgu natijaga, ikkinchisi esa salbiy natijaga yo'naltiriladi.

Joseph Jacobsning «Jack and His Comrades» ertagida ona farzandiga ikki xil tanlovni taklif qiladi: olqish bilan berilgan ozroq oziq-ovqat yoki qarg'ish bilan berilgan ko'proq oziq-ovqat [3]. Qahramon qarg'ishni rad etib, onasining olqishini afzal ko'radi.

Mazkur vaziyatda blessing oddiy maqtov yoki salomlashuv emas, balki farzandning kelajakdagi farovonligiga qaratilgan ezgu munosabatni ifodalaydi. Curse esa unga qarama-qarshi salbiy nutqiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek folkloridagi olqish va qarg'ish tushunchalari bilan qiyoslanganda, mazkur juftlikning asosiy umumiyligi nutqning kelajakdagi natijaga yo'naltirilganligidadir. Biroq olqish va qarg'ishning badiiy matndagi vazifasi faqat semantik qarama-qarshilik bilan cheklanmaydi. Ular qahramonning axloqiy tanlovini ochib berish, ijobiy va salbiy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'yish hamda voqealar rivojiga ma'naviy mazmun berishga xizmat qilishi mumkin.

Olqish va afsunning funksional farqlari

Olqish bilan afsun o'rtasidagi chegara ham muhim ilmiy masalalardan biridir. Olqishda ezgu natija tilanadi yoki oliy kuchdan so'raladi. Afsunda esa ayrim an'analarda so'zning o'zi orqali muayyan natijani bevosita yuzaga keltirishga intilish kuzatiladi.

J. Roperning ingliz verbal an'analari haqidagi tadqiqotlariga tayangan holda blessing va charm tushunchalarining funksional farqlarini ko'rib chiqish mumkin [4].

Masalan, «Xudo seni dardingdan asrasin» ezgu natija tilashga asoslanadi. Kasallikni buyruq shaklida haydashga qaratilgan formula esa afsunga yaqinlashishi mumkin. Ingliz folklorida ham diniy iltijo bilan verbal-magik amal o'rtasidagi farq har doim mutlaq emas. Ayrim matnlarda bu ikki unsur birgalikda namoyon bo'lishi mumkin.

Shu sababli qiyosiy tahlilda birlikning faqat grammatik shakliga emas, balki uning kontekstdagi vazifasiga ham e'tibor qaratish zarur.

Ingliz ertaklarida olqishning funksional namoyon bo'lishi

Ingliz folkloridagi «Wild Edric» hikoyasida olqish qahramonning kelajakdagi farovonligi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi [5]. Ayol Edricga omad, sog'lik, tinchlik va farovonlik tilaydi. Biroq mazkur ezgu natija muayyan shartning bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

Bu holat olqishning oddiy ijobiy gapdan farq qilishini ko'rsatadi. Unda adresat mavjud, ezgu natija tilanadi va tilak syujet rivoji bilan bevosita aloqaga kirishadi.

«Jack and His Comrades» ertagida esa olqish qarg'ishga qarama-qarshi qo'yilib, axloqiy tanlovni ifodalovchi vositaga aylanadi. Mazkur ikki epizod olqishning semantik yadrosi saqlangan holda turli badiiy funksiyalarni bajarishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq ertaklaridagi olqishlarni ham shu mezonlar asosida o'rganish mumkin. Bunda olqishning kim tomonidan aytilgani, kimga qaratilgani, qanday ezgu natija tilangani va syujetda qanday vazifa bajargani aniqlanadi.

Olqishni aniqlashning qiyosiy-tipologik mezonlari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi xalq ertaklarida olqish birliklarini yagona metodologik asosda o‘rganish uchun uchta asosiy mezon taklif etiladi.

Birinchisi — adresatlilik. Olqish boshqa shaxs, jamoa yoki badiiy kontekstda jonlantirilgan obyektga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ikkinchisi — ezgu natija semantikasi. Birlik sog‘lik, baxt, omonlik, farovonlik, muvaffaqiyat, himoya yoki boshqa ijobiy holatni tilashi zarur.

Uchinchisi — tilash xarakteri. Nutqiy birlik mavjud holatni shunchaki baholamasligi yoki xabar qilmasligi, balki istalgan natijani ifodalashi kerak.

Mazkur mezonlar asosida olqishga quyidagicha ishchi ta’rif berish mumkin: olqish — personaj yoki ijrochi tomonidan boshqa shaxsga, jamoaga yoxud jonlantirilgan obyektga qaratilgan, unga yaxshilik, sog‘lik, baxt, omonlik, farovonlik yoki boshqa ezgu natijani tilash mazmunini ifodalovchi verbal formuladir.

U diniy, dunyoviy yoki badiiy-obrazli shaklda kelishi mumkin. Sof maqtov, salomlashuv, nasihat, xabar, qasam va ezgu natijani tilamaydigan minnatdorchilik olqish korpusiga kiritilmaydi.

Xulosa

O‘zbek folkloridagi olqish tushunchasi ingliz tilidagi blessing, good wish, well-wishing va benediction birliklari bilan muayyan semantik va funksional umumiyliklarga ega. Biroq ularning terminologik chegaralari va qo‘llanish xususiyatlari har doim bir xil emas.

Olqishni maqtov, salomlashuv, nasihat, qarg‘ish va afsundan ajratishda adresatlilik, ezgu natija semantikasi hamda tilash xarakteri asosiy mezonlar sifatida qo‘llanishi mumkin.

Ingliz va irland ertaklaridagi ko‘rib chiqilgan epizodlar olqishning syujet rivoji, personaj xarakteri va axloqiy baholash bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi. Emic va etic yondashuvlarni birlashtirish esa milliy janriy nomlanishlarni saqlagan holda o‘zbek va ingliz folkloridagi olqish birliklarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madvaliyev A. (tahr.) (2007). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. «Olqish» moddasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Vaitkevičienė D. (2024). Prayer and verbal charm in Lithuanian tradition: emic and etic perspectives.
3. Jacobs J. (1892). Celtic Fairy Tales. «Jack and His Comrades». London: David Nutt.
4. Roper J. (2024). Blessings and charms in English verbal healing tradition.
5. Wild Edric. English Fairy and Other Folk Tales to‘plamidagi matn.
6. Niyazova M.X. (2022). Ingliz va o‘zbek adabiyotida olqishlarning badiiy-estetik vazifalari tipologiyasi. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.
7. Murodova M.I. (2024). Olqishlarning nutq akti sifatidagi lingvopragmatik xususiyatlari.
8. Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.
9. Searle J.R. (1969). Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.